


ISSN:
3030-3311



Volume|3 Issue|4 April 2025

JCWS


Journal of Contemporary
World Studies



2023

<https://bestjournalup.com/index.php/jcws>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 | APRIL | 2025



JCWS

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI, MOHIYATI VA ULARNI TASNIFLASH

Safarov Otabek Abdulla o'g'li

International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi

e-mail: otabek1272@gmail.com



ANNOTATION:

Mazkur maqolada aktivlar hisobini yuritishda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (BHHS 38 Nomoddiy aktivlar) hamda buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS 7 Nomoddiy aktivlar) o'rtasida o'zaro bog'liqlik va farqli jihatlari mavjud. Mavzuni yoritishda anashu jihatlarga to'xtalib o'tiladi. Uzoq muddatli aktivlar tushunchasi, ularning iqtisodiy mohiyati, tasnifi va korxona moliyaviy holatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ularni to'g'ri hisobga olishning ahamiyati tahlil qilinadi.

KEYWORDS:

uzoq muddatli aktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar, aktivlar, dastlabki tan olish, baholash, amortizatsiya, gudvil, biznes birlashuvlari. aktivlarni tasniflash.

Accepted Date:

April 30, 2025,

Published Date:

May 10, 2025

Journal Website:

<https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/view/jisn5>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

Kishilarning kundalik hayotida muayyan tirikchilik vositalarini iste'mol qilish ehtiyoji mavjuddir. Bu hayot faoliyatining muntazamligini ta'minlovchi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqalarga bo'lgan ehtiyojdir. Kishilar ehtiyojini qondirish manbai bo'lgan materiallar, xom ashyo va jihozlarning o'ziga ham ehtiyoj mavjuddir. Kishilar ehtiyojini qondirish usuli esa naflilik deb ataladi. Iqtisodiy nazariya kursidan ma'lumki, barcha naflilikka ega bo'lgan narsalar - bu ne'matdir.

Ehtiyoj bilan ne'mat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagi holat bilan xarakterlanadi. Ehtiyojlar cheksiz bo'lgan holda ne'matlar cheklangandir. Cheklangan ne'matlar iqtisodiy ne'matlar deb ataladi.

Iqtisodiy ne'matlar orasida boshqa ne'matlarni ishlab chiqaruvchi ne'matlar, ya'ni resurslar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy nazariyada ular, odatda ishlab chiqarish omillari, deb e'tirof etiladi.

Ishlab chiqarish omillari kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lgan bo'lsa-da, ularga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilib, turlicha tushuntiriladi. Jumladan, siyosiy iqtisod darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat buyumlari (er-suv, yer osti boyliklari kabi tabiiy boyliklar) ishlab chiqarish vositalari deyiladi va ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb e'tirof etiladi.

Asosiy qism

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan kapital iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Mumtoz iqtisodchi David Rikardoning fikricha: "Kapital bu mamlakat boyligining ishlab chiqarishda


ishtirok etadigan qismi bo'lib, mashina va jihozlar hamda xom ashyo materiallaridan iboratdir".

Qo'yilgan kapital kompaniyaning faoliyatini kengaytirib, kelgusida rivojlanish uchun zarur foyda olish imkoniyatini yaratadi. Foyda olish uchun yo'naltirilgan kapital ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo'lib, bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z ixtiyoridagi pul kapitaliga ishlab chiqarish vositalari va mehnat buyumlarini sotib olishi va unga ishlov beruvchi ishchi kuchini yollashi bilan kapital xarakatining birinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda pul shaklidagi mablag'lar unumli kapitalga aylanadi. Ishlab chiqarish jarayoni kapital harakatining ikkinchi bosqichini tashkil qilib, unda unumli kapital tovar shaklini oladi. Bu yerda vujudga kelgan tovar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ko'p bo'ladi. Kapital harakatining uchinchi bosqichi ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishni o'z ichiga oladi. Bunda tovarlar pulga aylanib, dastlab pul shaklida sarf qilingan mablag' yana pul shaklida, ammo orttirilgan qiymat hisobiga ko'proq miqdorda qaytadi.

Kapitalning bunday bosqichlardan o'tishi, uning doiraviy aylanishini tashkil etadi. Kapital doiraviy aylanishining mazmuniga ko'ra ikki qismga: asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi. Asosiy kapital qiymati bir necha doiraviy aylanishdan so'ng o'zining boshlang'ich qiymatini tiklasa, aylanma kapital bir doiraviy aylanishdan so'ng o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlariga ajratiladi. Bunday guruhlariga ajratishning asosini

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida qonun” tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy kontseptsiyasidir.



1 - rasm. Uzoq muddatli aktivlarning tarkibiy tuzilishi (foizlar hisobida).

Quyidagi 1-rasmdan ko‘rish mumkinki, oxirgi yillarda mamlakatimizda uzoq muddatli aktivlar tarkibini kengayib borishi va ularning ulushlarini ortib borishi kuzatilmoqda.

O‘rganilgan adabiyot manbalari va me‘yoriy xujjatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, uzoq muddatli aktivlarni tavsiflash va tasniflanish belgilarini yaqqol aniqlab bo‘lmaydi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ilmiy ishlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularda uzoq muddatli aktivlarga aniq tavsif berilmagan.

Aktivlarni uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog‘liqligi kapital hisobining iqtisodiy kontseptsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi ob‘ekti sifatidagi kontseptsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma‘nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish

muammolari bilan bevosita bog‘liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo‘jalik mablag‘lari deb tan olingan va e‘tirof etilgan. Ammo bu e‘tirof asosan asosiy kapitalga talluqli bo‘lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida davrda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa ob‘ektlari ham paydo bo‘lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo‘yilmalar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxona faoliyatida uzoq muddat ishtirok etishadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo‘lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar va investitsion mulk sifatida e‘tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va

tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Uzoq muddatli aktivlar – bu korxona mulki tarkibida uzoq muddat (bir yildan ortiq) foydalaniladigan, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan va daromad keltiruvchi iqtisodiy resurslardir. Ularning to'g'ri baholanishi va tasniflanishi korxonaning moliyaviy holatini aniq aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy ijara holatida, asosdagi aktiv moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Dastlab tan olingandan so'ng, ijaraga oluvchi moliyaviy ijara kelishuvi asosida egalik qilinayotgan nomoddiy aktivni mazkur xalqaro standartga muvofiq hisobga oladi. Tasviriy filmlar, video tasmalari, yozma asarlar, qo'lyozmalar, patentlar va avtorlik huquqlari kabi moddalar uchun litsenziyalash kelishuvlari asosidagi huquqlar BHXS 17 qo'llash doirasidan chiqarilgan bo'lib, u BHXS 38 faoliyat sohasida qo'llaniladi.

Agarda faoliyatlar yoki operatsiyalar maxsuslashtirilib, boshqacha yondashuv zarur bo'ladigan buxgalteriya hisobini qo'llashga olib kelsa, mazkur xalqaro standartning qo'llash doirasidan istisno bo'lishi mumkin. Bu esa qazib olish sohasida neft, gaz va mineral depozitlarni qidiruv yoki qayta ishlash va qazib chiqarish harajatlarini hisobga olishda hamda sug'urta shartnomalari holatlarida yuzaga keladi. Shu tufayli, mazkur xalqaro standart bunday faoliyatlardagi harajatlar va shartnomalar uchun qo'llanilmaydi. Biroq, mazkur standart qazib olish sohalarida yoki sug'urtachilar tomonidan foydalanilgan boshqa nomoddiy aktivlar (masalan, kompyuter dasturi) va sarflangan boshqa harajatlar (masalan, biznesni boshlash harajatlari) uchun qo'llaniladi.

BHMSda nomoddiy aktivga berilgan ta'rif deyarli xalqaro standartga to'liq muvofiq keladi deb aytish mumkin. Milliy

•

standartda keltirilgan asosiy atamalar va ta'riflarda nomoddiy aktivlar quyidagicha shakllantiriladi:

Nomoddiy aktivlar - korxona tomonidan uzoq muddat mobaynida ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun ushlab turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikatsiyalanadigan mol-mulk obyektlaridir.

Nomoddiy aktivlarni dastlabki tan olish va baholash.

BHXS 38 aktivni nomoddiy aktiv sifatida tan olishda quyidagilarni qanoatlantirishini talab etadi:

Birinchidan, nomoddiy aktiv ta'rifini.

Ikkinchidan, tan olish mezonlarini.

Ushbu talablar nomoddiy aktivni sotib olishda yoki ichki yaratishda sarflangan hamda qismni qo'shish, almashtirish yoki unga xizmat ko'rsatishdagi harajatlarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, alohida sotib olingan nomoddiy aktivlar uchun tan olish mezonini qo'llash, biznes birlashuvida sotib olingan nomoddiy aktivlar uchun ularning qo'llanishi, davlat grantlari orqali sotib olingan nomoddiy aktivlarning dastlabki baholanishini, nomoddiy aktivlarni ayirboshlashni, ichki yaratilgan gudvillni hisobga olishni hamda ichki yaratilgan nomoddiy aktivlarni dastlabki tan olish va baholashni qamrab oladi.

Uzoq muddatli aktivlarga quyidagilar kiradi:

- **Moddiy aktivlar:** binolar, inshootlar, mashina va uskunalar;
- **Nomoddiy aktivlar:** patentlar, litsenziyalar, savdo belgilar;
- **Moliyaviy investitsiyalar:** uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar, boshqa korxonalaridagi ulushlar.

1-jadval. Uzoq muddatli aktivlarni shakllanishida korxona faoliyatining rivojlanish siklining bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni
Yangi korxonaning tashkil etilishi	Bu aktivlar shakllanishining eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri (ular shakllanishining dastlabki bosqichi) - bu, asosan, yirik korxonalarni tashkil etish jarayonida yuzaga chiqadi. Bu bosqichda shakllanadigan uzoq muddatli aktivlar ko'p jihatdan boshlang'ich kapitalga bo'lgan talabni belgilaydi, foydaning shakllanish shartlarini aniqlaydi.
Faoliyat yuritayotgan korxonani kengaytirish, rekonstruktsiya qilish va modernizatsiyalash.	Uzoq muddatli aktivlarning ushbu shakllanish bosqichini aktivlarning hayotiy tsikli davomidagi uzviy rivojlanish jarayoni sifatida ko'rish mumkin. Faoliyat yuritayotgan korxona uzoq muddatli aktivlarining tarkibini yangilash va kengaytirish korxonani rivojlantirishning strategik maqsadlarini hamda investitsion resurslarni shakllantirish imkoniyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonada yangi tuzilmaviy birliklarini shakllanti-rish (sho''ba korxonalar, filiallar va hokazolar).	Bu jarayon yangi tuzilmaviy mulkiy komplekslarni shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin (yangi bino qurilganda eskisini shunday filial qilib qo'yish) yoki tayyor ko'chmas mulkni sotib olish orqali (davlat korxonasini xususiyashtirish, bankrot bo'lgan korxonani sotib olish kabilar).

Ular balansda ularning sotib olish (dastlabki) qiymati, eskirish darajasi va foydali foydalanish muddati asosida aks ettiriladi. Tasniflashda ularning iqtisodiy funksiyasi, foydali muddati va pul oqimiga ta'siri e'tiborga olinadi.

1. Uzoq muddatli aktivlar quyidagi belgilarga ega:

- Foydali ishlash muddati **bir yildan ortiq**;
- **Daromad keltiradi** yoki korxona faoliyatida bevosita ishtirok etadi;
- **Qayta sotish uchun emas**, balki foydalanish uchun mo'ljallangan;
- **Eskirishga (amortizatsiyaga)** tortiladi (moddiy aktivlar uchun).

2. Tasniflash mezonlari

Uzoq muddatli aktivlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

- **Fizik mavjudligiga qarab:**

✓ *Moddiy aktivlar* – yer, bino, uskunalar;

✓ *Nomoddiy aktivlar* – brend, dasturiy ta'minot, patentlar.

➤ **Moliyaviy xarakteriga qarab:**

✓ *Investitsiya aktivlari* – aksiyalar, obligatsiyalar.

➤ **Foydalanish sohasiga qarab:**

✓ Ishlab chiqarishda foydalaniladigan;

✓ Ijaraga beriladigan;

✓ Tadqiqot ishlari uchun foydalaniladigan.

3. Uzoq muddatli aktivlarning baholash usullari

Baholash buxgalteriya hisobotida muhim ahamiyatga ega:

- **Dastlabki qiymat** (sotib olish qiymati + qo'shimcha xarajatlar);

- **Qayta baholangan qiymat** (bozor qiymati asosida);

• **Qoldiq qiymat** (dastlabki qiymat – eskirish).

4. **Amortizatsiya va uning ahamiyati**

Amortizatsiya – uzoq muddatli aktivlarning eskirishini moliyaviy ifodalash. Bu xarajatlar shaklida hisoblanadi va foydaning to‘g‘ri hisoblanishida muhim rol o‘ynaydi.

5. **Moliya hisobotida aks ettirish**

Moliyaviy hisobotlarda (balans, foyda va zarar hisobotida) uzoq muddatli aktivlar alohida satrda ko‘rsatiladi:

- 1-bo‘lim:
- **Uzoq muddatli aktivlar.**
- Moddiy aktivlar.
- Nomoddiy aktivlar.
- Moliyaviy aktivlar.
- Kapital investitsiyalar.

XULOSA.

Uzoq muddatli aktivlar korxonaning asosiy kapitalini tashkil etib, uning ishlab chiqarish quvvatini va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Ularning to‘g‘ri tasniflanishi, baholanishi va eskirish jarayonini aks ettirish korxona moliyaviy hisobotlarining ishonchliligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarining aniq qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Uzoq muddatli aktivlarning to‘g‘ri aniqlanishi va hisobda aks ettirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlaydi. Ularni tasniflash esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi amaliyoti va yuridik talqin nuqtai nazaridan kelib chiqib uzoq muddatli aktivlar hisobiga mulkiy alohidalik tamoyilini qo‘llash quyidagicha tashkil etilishi mumkin: shaxsiy mulkchilik, xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqida bo‘lgan uzoq muddatli aktivlar, boshqa yuridik shaxslarning uzoq muddatli aktivlaridan ajratilgan holda hisobga olinadi.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi negizida yotuvchi keyingi muhim tamoyil –

bu faoliyatning uzluksizligidir. Ushbu tamoyil korxonani bir maromda faoliyat yuritishini va yaqin kelajakda o‘z faoliyatini davom ettirishini bildiradi. Uzluksiz tamoyiliga asosan korxonada o‘z faoliyatini tugatish yoki qisqartirish niyati bo‘lmaydi va shuning uchun uning majburiyatlar o‘rnatilgan tartibda qondiriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi №54-sonli qarori.
4. Davlat ulushi bo‘lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Hammuallif – T.: “MOLIYA”, 2010 -272 b.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 y. 555 Раздаточный материал по курсу повышения квалификации: «Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). O‘zbekiston auditorlar palatasi. Tashkent-2015. 335-bet.